

UMUMTA'LIM MAKTABLARINING BOSHLANG'ICH SINFLARIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH TEKNOLOGIYALARI

Kirmiz Rustamova Tuxtamishovna

Surxondaryo viloyat Denov tumanidagi 80-umumi o'rta ta'lismaktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada umumi o'rta ta'lismaktablarining boshlang'ich sinflarida ona tili va o'qish fanlarini tashkil etish texnologiyalari va dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanishning samarali jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, metod, o'quv jarayoni, ona tili, o'qish, yozuv, harf, tovush, didaktik o'yin.

Abstract: This article discusses the technology of organizing mother tongue and reading subjects in the primary grades of general secondary schools and the effective use of didactic games in the classroom.

Keywords: pedagogical technology, method, learning process, mother tongue, reading, writing, letters, sound, didactic game.

Umumi o'rta ta'larning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lism 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturlarimizda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'larning yangicha tizimini va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

> o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqlashtirilgan yondashuvni joriy etish;

> ta'lism berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hokazo.

Mashhur rus olimi K.D.Ushinskiy boshlang'ich mакtab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. "Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi. Bola ikki-uch yil ichida shunchalik ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir", - deydi u.Boshlang'ich ta'larning 1-sinflarida bolalarga savod o'rgatish jarayoni 4 oy davom etadi. Bu jarayon quyidagi 2 davrga bo'linadi:

1. alifbogacha tayyorgarlik davri. (bu davr 2 haftani qamrab oladi).
2. alifbo davri (o'quv yilining 31-dekabrgacha davom etadi).

Alifbogacha tayyorgarlik davri. Bu davrning asosiy vazifasi o'quvchilarni mакtab, sinf, tartib-intizom qoidalari va o'quv qurorollari bilan tanishtirish, nutq o'stirishga oid

mashqlar o'tkazib, fonematik eshitishni oshirishdan iboratdir. Mazkur davrning o' zi ham quyidagi 2 bosqichga bo'linadi:

- a) harf o'rganilmaydigan bosqich (1 hafta).
- b) unli tovush va harf o'rganiladigan bosqich (1 hafta).

Birinchi bosqichda o'quvchilarga og'zaki va yozma nutq, gap, so'z, bo'g'in va tovushlar, nutqning gaplardan, gaplarning so'zlardan tuzilishi, so'zlarning bo'g'lnlarga bo'linishi, bo'g'lnlarning tovushlardan tashkil topishi haqida ma'lumot beriladi, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi o'rgatiladi, ulardan amaliy foydalana bilish ko'nikmalarini hosil qilinadi. Bu jarayonda maxsus nusxalar asosida o'quvchilarning bog'lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga "Alifbe"da berilgan rasmlar asosida hikoyalari tuzdiriladi. Maktab kutubxonasi dagi kitoblardan foydalanib o'zlari bilgan she'r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishmoq, xalq ashulalari, alla, qo'shiqlar, latifalardan ayttiriladi.

Bundan tashqari ta'lim jarayonida yaxshi samara berishi mumkin bo'lgan metodlardan yana biri tayanch so'zlar asosida gap tuzdirishdir. "Alifbe" kitobi sahifalaridagi so'zlarning talaffuzi, ularning o'qilishi va ma'nolari ustida ishlash kabi mashg'ulotlar uyushtiriladi. Bu tarzdagi ishlarining har bir darsda mavzularga bog'liq ravishda izchil davom ettirib borilishi dars samaradorligini oshiradi. Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilar yozuv daftari va yozuv chiziqlari bilan tanishtirilib, harf elementlarini yozishga o'rgatiladi, ularda namunaga qarab grafik xatolarini aniqlash, o'z-o'zini tekshirish, harf oralarining tengligiga rioya qilish, chandalab yozish kabi ko'nikmalarini hosil qilinadi. Ikkinci bosqichda esa unli tovush va harflar o'rgatiladi. Bunda quyidagi uch xususiyatni o'quvchilar tomonidan amaliy ravishda puxta egallashlariga erishish lozim:

1. talaffuzda (og'izda) to'siqqa uchramaslik;
2. cho'zib aytishini nazorat qilish;
3. faqat ovozdan tashkil topishi.

Shuningdek, bu bosqichda o'quvchilarni tovush bilan harfni farqlashga o'rgatish ko'zda tutiladi. Ushbu bosqichdanoq tovush va harf o'rtasidagi chegaraga qat'iy rioya qilinadi. Bolalarga tovush haqidagi ma'lumotlar kitob ochtirilmay beriladi. Tovushni ifodalovchi harf ko'rsatilgach, harf ustida ishlanadi. Tovush va harfga oid o'ziga xos xususiyatlar, ya'ni, tovushlarni talaffuz qilamiz, eshitamiz, harflarni yozamiz, ko'ramiz va o'qiyamiz. Bu tushunchalar bolalarga ularning o'zlashtirishlarini hisobga olgan holda sekin-asta tushuntirila boriladi.

Alifbo davri. 31-dekabrgacha davom etib, unda o'quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh tovush-harflar bilan tanishtiriladi. Undoshlar osondan qiyinga tamoyili asosida joylashtiriladi. Oldin sonor tovushlar n, m, l kabilari, keyin esa sirg'aluvchi va boshqa undoshlar, ikki tovushni ifodalaydigan j, harf birikmalari (ng, sh, ch), tovush

bildirmaydigan tutuq belgisi (‘) bilan tanishtiriladi. O'quvchilarning tovush va harfni yaxshi tanishlari, elementar o'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlash, bo'g'indan tovushni ajratish, tovush va harf munosabatini aniqlash, kesma harflardan bo'g'in tuzish va o'qish, bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlili kabi mashqlardan foydalilaniladi. Bu davrda bo'g'inlab o'qish asosi shakllantiriladi, ikki harfli ochiq (na, ni, nu kabi), ikki harfli yopiq (in, ol kabi), uch harfli yopiq bo'g'irlarni (mon, lim) o'qishga o'rgatiladi.

Alifbo davrini o'rganiladigan tovush-harfning va o'quv materialining murakkablik darajasiga ko'ra 3 bosqichga ajratish mumkin:

1. unli tovush-harflar, ovozdor, sirg'aluvchi undoshlar, o-na, a-na, il, in, bi-lan tuzilishidagi so'zlar o'rganiladigan bosqich.

2. artikulatsiyasi qiyin bo'lgan r, k, v, kabi undoshlar va yo'l-bars, do'st, rasm kabi tuzilishdagi so'zlar o'rganiladigan bosqich.

3. o'rganilganlar takrorlanib, harf birikmalari ng, sh, ch, ikki tovushni ifodalaydigan j, tutuq belgisi (‘) va jo'ja, jurnal, jirafa, tong, so'ng, bodring, choynak, shudring va shu kabi so'zlarni o'qishga o'rgatiladigan bosqich. Fonetik ishlar sohasida jarangli va jarangsiz undoshlarni taqqoslashga, ularning so'z ma'nosini farqlashdagi holatini aniqlashga oid mashqlar o'tkaziladi. Masalan, (ziyrak-siyrak, dil-til kabi). Artikulyatsiyasi qiyin bo'lgan undoshlarning masalan, tong, rang, keng, lab-tish undoshi v, qorishiq undosh ch, jarangli portlovchi j (go'ja) va jarangli sirg'aluvchi j (jurnal) kabilarni o'rganishda tovush artikulatsiyasiga oid ishlar qiyinlashadi. Asosiy davrning oxirlarida jarangsiz jufti talaffuz qilinadigan undoshli so'zlar masalan, ko'rib-ko'rip, qaytdik-qayttik, aytib-aytip, ketayotib-ketayotip, tortib-tortip, terib-terip, olib-olip, obod-obot, borishdi-borishti, jumladan, qisqa talaffuz qilinadigan i unlisi bor so'zlar masalan, bilan-blan, sira-sra, talaffuzda tushib qoladigan undoshli so'zlar: baland-balan, do'st-do's), Toshkent-Toshken, farzand-farzan, daraxt-darax kabilarni yozilgandek o'qish imloni o'rganishga tayyorlaydi. Bular avval orfografik, so'ng orfoepik o'qitiladi. Yuqorida kabi so'zlarni o'qish bilan bo'g'inlab o'qish malakasi takomillashadi. O'quvchilar talaffuzi va yozilishida farqlanadigan so'zlarni ham to'g'ri o'qishga o'rganadilar. Alifbo davrining oxirida o'quvchilar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur:

1. hamma tovushlarni tanishi va har qanday holatda to'g'ri talaffuz qilishi;

2. so'zning bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlilini bilishi, so'zdagi tovushlarning izchil tartibini aniqlay olishi, kerakli tovushni so'z va bo'g'inga ajrata olishi;

3. kesma harf va bo'g'irlardan so'z tuza olishi va o'qishi;

4. 2-3 va 4 bo'g'inli so'zlarni yaxlit, adabiy-orfoepik talaffuz bilan o'qishi;

5. gaplarni ohangiga rioya qilib o'qishi;

6. o'zi o'qigan matnning mazmunini tushunib, ongli o'qishi;

7. o'qigan matn mazmunini savollar asosida soddagina qilib qayta hikoyalab berishi;

8. o'qigan matnga sarlavha topa olishi;

9. to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish malakalariga ega bo'lishi.

Alifbo davri yozuv darslarining vazifasi kichik va bosh yozma harflarni to'g'ri shakllantirish, harflarni to'g'ri ulash, alifbeda o'qigan bo'g'in, so'z va gaplarni namunaga qarab yozish, harf, bo'g'in, so'z, gap diktantlarni yozish ko'nikmasini shakllantirish, izohli, saylanma, ko'rish rasm diktant kabi ta'limiy diktant turlarini yoza olishlariga erishish, umuman, grafik malakani shakllantirishdir. Savod o'rgatish jarayonining oxirida bir darsda, agar darsning 2/3 qismi o'qitilsa, 20 tagacha so'z yoza olishlari talab qilinadi.

Savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimini boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatliligi bilan alohida o'rin tutadi.

Hozirgi kunda boshlang'ich ta'llimda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali, evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi.

Didaktik o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarsih va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intelektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'llim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'llim olish motivlarini, ularni turli yo'nalishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik, va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilardagi tahlil qilish, mantiqiy fikrlash,

tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rganish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Didaktik o'yin turlarini tanlashda, quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi:

> ishtirokchilarning tarkibi bo'yicha, ya'ni o'g'il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruuhlar uchun o'yinlar;

> ishtirokchilarning soni bo'yicha - yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinfjamoasi, sinflararo jamoasi va ommaviy tarzdagi o'yinlar;

> o'yin jarayoni bo'yicha - fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlar asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan;

> vaqt me'yori bo'yicha - dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yi maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan o'yinlar.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ta'lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita sanaladi. Unga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'lim beruvchi faoliyat sifatida qarash lozim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, boshlang'ich ta'limning 1-4 sinflari bola hayotida muhim davrni tashkil qilib, o'quvchining keyingi davrdagi o'qish jarayoniga bo'lgan tasavvurida eng ahamiyatli davrdir. Dars mashg'ulotlari vaqtida har bir o'qituvchi o'z o'quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolaning o'qish, o'zlashtirish, bilim, ko'nikma, malakalarni egallash darajasi yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. -T., 2001.
2. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: O'qituvchi, 2004.
3. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik.texnologiyalar.-T.,1999.
4. Saydaxmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya moxiyati va zamonaviy loyixasi.-T., 1999.